

“TASDIQLANGAN”

“Turonbank” ATB

Kuzatuv kengashining 2022-yil

“30.12. k-93/1” dagi majlis qarori

**“TURONBANK”ATB
KUZATUV KENGASHI HUZURIDAGI
STRATEGIYA VA INVESTITSIYALAR
QO‘MITASI TO‘G‘RISIDA
NIZOM**

Toshkent- 2022 yil

I. Umumiy qoidalar

1.1. Mazkur Nizom (keyingi o‘rinlarda – Nizom) O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o‘sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to‘g‘risida”gi 2022-yil 8-apreldagi PF-101-sون Farmoniga, Vazirlar Mahkamasining “2021-2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasini tasdiqlangan to‘g‘risida”gi 2021-yil 29-martdagi 166-сон qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “2021 - 2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasiga, “Turonbank” ATB (keyingi o‘rinlarda – Bank) Ustaviga, Korporativ boshqaruv kodeksiga va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, Bank Kuzatuv kengashi huzuridagi Strategiya va investitsiyalar qo‘mitasining (keyingi o‘rinlarda – Qo‘mita) huquqiy maqomini, tarkibini, vakolatlarini va uning ishlash tartibini belgilaydi.

1.2. Qo‘mita eng muhim masalalarni ko‘rib chiqish va Bankning Kuzatuv kengashiga tavsiyalar tayyorlash uchun Bank Kuzatuv kengashining qarori asosida tashkil etiladi. Qo‘mita Bank Kuzatuv kengashining doimiy faoliyat yurituvchi ishchi organi hisoblanadi.

1.3. Qo‘mita Bank va bank aksiyadorlari manfaatlarini ko‘zlab ish olib boradi, xususan, uzoq muddatli istiqbolda bank faoliyati samaradorligini oshirishda hamda uning aktivlari, rentabelligi va investitsion jozibadorligini oshirishga hissa qo‘shadi.

1.4. Qo‘mita Bank Kuzatuv kengashiga to‘liq javobgardir va mazkur Nizomga muvofiq Bank Kuzatuv kengashi tomonidan unga beriladigan vakolatlar doirasida ish olib boradi. Qo‘mita qarorlari Bank Kuzatuv kengashi uchun tavsiyaviy xarakterga ega bo‘ladi.

1.5. Qo‘mita o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Qonunchiligiga, Bank Ustaviga, Bank Kuzatuv kengashi to‘g‘risidagi Nizomga, Bank Kuzatuv kengashi qarorlariga, mazkur Nizomga va boshqa ichki hujjatlarga amal qiladi.

1.6. Qo‘mita faoliyatini moliyalashtirish Bank mablag‘lari hisobidan Kuzatuv kengashi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi. Zarur hollarda Qo‘mita harajatlar smetasini tuzadi va u Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

1.7. Mazkur Nizomda belgilanmagan atamalar amaldagi Bank Ustavida va Bank Kuzatuv kengashi to‘g‘risidagi Nizomga, bankning boshqa ichki me’yoriy hujjatlarida keltirilgan ma’noda foydalaniadi.

II. Qo‘mitaning maqsad va vazifalari

2.1. Qo‘mita faoliyatining asosiy maqsadi quyidagi masalalar bo‘yicha bank Kuzatuv kengashiga tavsiyalar ishlab chiqish, tahlil qilish va taqdim etishdan iborat:

- Bank faoliyatining strategik va ustuvor yo‘nalishlarini belgilash;
- Bankning investitsiya faoliyatini nazorat qilish;
- Istiqbolli investitsiya loyihalari samaradorligini va ularning Bank aksiyadorlik qiymatini oshirishda ta’sirini baholash;

- Bank Kuzatuv kengashining vakolatlariga taalluqli boshqa masalalar.

2.2. Qo‘mita o‘z vakolatiga muvofiq faoliyatni amalga oshirib, Bankning Kuzatuv kengashi, Boshqaruvi va tegishli tarkibiy bo‘linmalari bilan hamkorlikda ish olib boradi.

III. Qo‘mita vakolatlari

3.1. Bank Kuzatuv kengashi a’zolariga yuklatilgan vazifalarni bajarishda ko‘maklashish maqsadida, Bank Kuzatuv kengashi vakolatlari doirasida Qo‘mitaga quyidagi huquqlar beriladi:

- Bank strategik rivojlanishining konsepsiyalari, dasturlari va rejalarini tahlil qilish hamda Bank Kuzatuv kengashiga o‘z tavsiyalarini kiritish;

- istiqbolli rivojlanish strategiyalarini tahlil qilish va uni amalga oshirilishini monitoring qilish;

- Bank Kuzatuv kengashiga Bank faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha tavsiyalar berish;

- Kuzatuv kengashiga keyinchalik Bank aksiyadorlari umumiyligiga chiqishiga taqdim qilish uchun kiritiladigan masalalarni ko‘rib chiqish;

- quyidagi masalalar bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish:

1) aksiyalarni joylashtirish narxini belgilash (birja va uyushgan birjadan tashqari qimmatli qog‘ozlar bozoriga chiqarish);

2) korporativ, shu jumladan aksiyalarga ayirboshlanadigan obligatsiyalarini chiqarish;

3) hosilaviy qimmatli qog‘ozlarini chiqarish;

4) Bank aksiyalarini maydalash va yiriklashtirish;

- Bank Kuzatuv kengashiga dividend qiymati, to‘lash shakli va tartibi bo‘yicha tavsiyalar tayyorlash;

- Bank Kuzatuv kengashiga Bank zahira va boshqa fondlarini ishlatish bo‘yicha tavsiyalar taqdim qilish;

- Bankning texnologik va investitsion strategiyalarini ko‘rib chiqish;

- Bankning investitsion loyihamalarini ko‘rib chiqish;

- yillik biznes-reja va uning bajarilishi to‘g‘risidagi hisobotni ko‘rib chiqish va kelishish;

- tashqi moliyalashtirish dasturini ko‘rib chiqish;

- xaridlar qaydnomasini muvofiqlashtirish;

- Bank aktivlari balans qiymatining 5 (besh) foizidan ortiq bo‘lgan mol-mulk bitimlari bo‘yicha bank Kuzatuv Kengashiga tavsiyalar tayyorlash;

- Bank Boshqaruvi tomonidan amalga oshirish taklif etilayotgan investitsiya loyihamalarini ko‘rib chiqish va natijalari bo‘yicha Bank Kuzatuv Kengashiga tavsiyalar tayyorlash;

- O‘zbekiston Respublikasi hududida bank tarkibiy tuzilmalarini (filiallar va BXMLar) tashkil etish va xorijiy davlatlarda vakolatxonalarini ochish hamda ularni

tugatish bo'yicha Kuzatuv kengashiga tavsiyalar tayyorlash;

- sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarini ta'sis etish yoki ularni tugatish bo'yicha Kuzatuv kengashiga tavsiyalar tayyorlash;

- Bank zahiralaridan foydalanish bo'yicha Kuzatuv Kengashiga tavsiyalar tayyorlash;

- Bankning sohaga oid bo'limgan aktivlaridan foydalanish siyosati sohasida Kuzatuv kengashiga tavsiyalar tayyorlash;

- keyinchalik Bank aksiyadorlarining umumiyligi yig'ilishiga taqdim etish uchun tijorat tashkilotlari va boshqa birlashmalarida ishtirok etish bo'yicha bank Kuzatuv Kengashiga tavsiyalar tayyorlash;

- Bank Kuzatuv Kengashi talabiga ko'ra hulosalar tayyorlash yoki o'z vakolati doirasida muayyan masalalar bo'yicha o'z tashabbusi bilan tavsiyalar tayyorlash, hamda yil yakuni bo'yicha Kuzatuv kengashiga Qo'mitaning bir yillik ishlari bo'yicha hisobot taqdim etish.

3.2. Qo'mitaning bir yillik ishlari bo'yicha hisobotida yil davomida Qo'mita faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar, shu jumladan vakolat doirasidagi masalalar bo'yicha Bank Kuzatuv kengashiga taqdim etilgan tavsiyalar ro'yxati, Qo'mita faoliyatini ta'minlash uchun sarflangan mablag'lar (xarajatlar summalarini va yo'nalishlari) to'g'risidagi ma'lumotlar, tashqi ekspert va maslahatchilardan olingan xizmatlar haqida ma'lumot va Qo'mita tasdiqlangan ish rejasining bajarilishi to'g'risidagi ma'lumotlar bo'lishi lozim.

IV. Qo'mitaning huquq va majburiyatları

4.1. Qo'mita a'zolari huquqlari:

- Bank Kuzatuv kengashining qarorlari va ko'rsatmalarining bajarilishini nazorat qilish va tekshirish;

- Bank Boshqaruv a'zolari va tarkibiy bo'linmalari rahbarlaridan o'z faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni so'rash va olish.

- Qo'mita byudjeti doirasida tashqi ekspertlar va maslahatchilar xizmatidan foydalanish;

- Qo'mita majlislariga ushbu Nizomga muvofiq uchinchi shaxslarni taklif qilish;

- Bank Kuzatuv kengashi muhokamasiga ushbu Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar kiritish;

- Qo'mita vakolatlarini bajarishi uchun zarur bo'lgan boshqa huquqlarni amalga oshirish.

4.2. Qo'mita a'zolari majburiyatları:

- Qo'mita ishida qatnashish va uning muntazam ravishda o'tkaziladigan barcha yig'ilishlarida ishtirok etish;

- tegishli sanoat va iqtisodiyotdagi tendensiyalarini, axborot texnologiyalari

sohasidagi va Bank taraqqiyoti uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lgan boshqa sohalardagi yutuqlarni kuzatib borish;

- rasmiy vazifalarini bajarish chog‘ida ularga ma’lum bo‘ladigan barcha ma’lumotlarning maxfiyligiga rioya qilish;

- Bank Kuzatuv kengashiga mustaqil a’zo maqomidagi har qanday o‘zgarishlar to‘g‘risida yoki Qo‘mita tomonidan qabul qilinadigan qarorlar bilan bog‘liq manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelishi to‘g‘risida axborot berish.

V. Qo‘mita tarkibi va uni shakllantirish tartibi

5.1. Qo‘mitaning miqdoriy tarkibi kamida 3 ta a’zodan iborat bo‘lib, ularning kamida bittasi, qoida tariqasida Kuzatuv kengashining mustaqil a’zosi hisoblanadi.

5.2. Qo‘mitaning shaxsiy tarkibi bank Kuzatuv kengashi tomonidan o‘z tarkibidan saylanadi. Qo‘mita a’zolarini saylashda ularning olgan ta’limi, kasbiy tayyorgarligi, Qo‘mita faoliyati sohasidagi tajribasi va Qo‘mita a’zolari o‘z vazifalarini bajarishi uchun zarur bo‘lgan boshqa maxsus bilimlari e’tiborga olinishi lozim. Strategiya va investitsiya bo‘yicha Qo‘mita a’zolarini saylash to‘g‘risidagi qaror bank Kuzatuv Kengashi a’zolari umumiylar sonining oddiy ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

5.3. Strategiya va investitsiyalar bo‘yicha qo‘mita a’zolari cheklanmagan marotaba saylanishi mumkin.

5.4. Qo‘mita a’zolarining vakolat muddatlari Kuzatuv kengashi a’zolari sifatida o‘z vakolatlari muddatlariga to‘g‘ri keladi. Qo‘mita a’zolarining vakolatlari Kuzatuv kengashi yangi tarkibda saylangan kundan boshlab to‘xtatiladi. Qo‘mitaning har qanday a’zosining (barcha a’zolarining) vakolatlari Kuzatuv kengashi qarori bilan muddatidan oldin bekor qilinishi mumkin.

Qo‘mita tarkibidagi o‘zgarishlar Kuzatuv kengashi tomonidan istalgan vaqtida amalga oshirilishi mumkin.

5.5. Qo‘mita a’zolari Kuzatuv Kengashi raisi nomiga ariza va bir vaqtning o‘zida Qo‘mita raisiga bildirishnoma yuborish orqali o‘z vakolatlaridan iste’foga chiqishlari mumkin.

5.6. Qo‘mita a’zosining vakolatlari o‘z xohishiga ko‘ra iste’foga chiqqan bo‘lsa, Bank Kuzatuv kengashi keyingi yig‘ilishida, lekin Qo‘mita a’zosini o‘z vakolatlaridan iste’foga chiqishi to‘g‘risida ariza bergen sanadan 1 (bir) oydan kechiktirmay, Qo‘mitaning yangi a’zosi saylanadi, bunga qadar Qo‘mita a’zosi o‘z vazifalarini to‘liq bajarishda davom etadi.

5.7. Qo‘mita a’zosining vakolatlari Kuzatuv kengashi tomonidan bekor qilinsa, vakolatlar bekor qilinganidan so‘ng 2 (ikki) xaftha ichida Qo‘mitaning yangi a’zosi saylanadi.

5.8. Qo‘mitaning yangi a’zosi saylanganidan so‘ng, Qo‘mita raisi 1 (xafta) ichida Qo‘mitaning yangi a’zosi bilan uchrashadi va uni Qo‘mita vakolatlari va ishlari bilan tanishtiradi.

5.9. Qo‘mita a’zolariga Kuzatuv kengashi tomonidan tavsiya etilgan, hamda Bank aksiyadorlari umumiylar yig‘ilishida ma’qullangan miqdor va tartiblarda haq to‘lanadi va / yoki o‘z vazifalarini bajarish bilan bog‘liq xarajatlar qoplanadi.

5.10. Qo‘mita raisi Bank Kuzatuv Kengashi tomonidan tayinlanadi va Qo‘mita ishini tashkil etadi.

5.11. Qo‘mita raisi:

- Qo‘mita faoliyatini tashkillashtiradi;
- Qo‘mita yig‘ilishlarini chaqiradi va ularga raislik qiladi;
- Qo‘mita a’zolari o‘rtasida burchlarni taqsimlaydi;
- Kuzatuv kengashi majlislari rejasini hisobga olgan holda joriy davr uchun ish rejasini ishlab chiqadi;
- Qo‘mita majlislarini chaqiradi, ularga raislik qiladi va yig‘ilish bayonnomasini yuritishni tashkil etadi;
- Qo‘mita faoliyati to‘g‘risida Kuzatuv kengashi oldida hisobot beradi;
- Bankning ichki hujjatlari va ushbu Nizomda nazarda tutilgan boshqa harakatlarni amalga oshiradi.

5.12. Qo‘mita raisi Qo‘mita tavsiyalarini o‘z vaqtida Kuzatuv kengashi a’zolari e’tiboriga yetkazish, shuningdek, berilgan tavsiyalar bajarilishi ustidan monitoringini olib borishga javobgardir.

5.13. Qo‘mita raisi vaqtincha yo‘q bo‘lganda uning vazifalari Qo‘mita a’zolaridan biri tomonidan amalga oshiriladi.

5.14. Bankning korporativ maslahatchisi Qo‘mita kotibi hisoblanadi.

5.15. Qo‘mita kotibi:

- Qo‘mitaning yig‘ilishi bayonnomalarini yuritadi va tuzadi;
- Qo‘mita yig‘ilishlariga tayyorgarlikni (yig‘ilish uchun materiallarni yig‘adi va tizimlashtiradi, Qo‘mita a’zolari va taklif etilgan shaxslarga Qo‘mita yig‘ilishini o‘tkazish to‘g‘risida xabarnomani o‘z vaqtida yuboradi, yig‘ilish kun tartibini, kun tartibiga kiruvchi masalalar bo‘yicha ma’lumotlarni tayyorlaydi, Qo‘mita qarorlari loyiҳalarini tayyorlaydi, shuningdek barcha tegishli materiallar saqlanishini ta’minlaydi) amalga oshiradi;
- Qo‘mita faoliyatini tashkiliy va axborot bilan qo‘llab-quvvatlashni, Qo‘mita a’zolarining Kuzatuv kengashi va Bank mansabdor shaxslari bilan o‘zaro hamkorligi va tezkor ishslashini ta’minlaydi.

VI. Qo‘mita majlislarini o‘tkazish shartlari va tartibi

6.1. Qo‘mita majlislari Qo‘mita tomonidan tasdiqlangan rejaga muvofiq, lekin Qo‘mita a’zolarining vakolat muddati davomida kamida 4 (to‘rt) ta yig‘ilish o‘tkaziladi. Qo‘shimcha yig‘ilishlar kerak bo‘lganda chaqirilishi mumkin.

6.2. Qo‘mita majlislari Qo‘mita a’zolarining birligida ishtiroy etishi yoki sirtqi ovoz berish shaklida o‘tkaziladi. Qo‘mita faqat Qo‘mita a’zolarining birligida ishtiroy shaklida ko‘rib chiqilishi kerak bo‘lgan masalalar ro‘yxatini tasdiqlashi mumkin. Ushbu qaror Qo‘mitaning barcha amaldagi a’zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi.

6.3. Qo‘mita yig‘ilishlari Qo‘mita raisi tomonidan uning tashabbusi bilan, Qo‘mita a’zosining talabiga binoan yoki Bank Kuzatuv kengashi qarori bilan

chaqiriladi. Qo‘mita raisi bilan kelishilgan holda Qo‘mita kotibi Bank Boshqaruv a’zolari iltimosiga binoan Qo‘mita yig‘ilishini chaqirishi mumkin. Qo‘mitaning navbatdan tashqari yig‘ilishini chaqirish talabi bo‘lgan taqdirda, Qo‘mita raisi 5 (besh) ish kuni mobaynida Qo‘mitaning navbatdan tashqari yig‘ilishini chaqirishi shart.

Qo‘mita yig‘ilishi yig‘ilishda ishtirok etuvchi barcha a’zolar tomonidan imzolangan bayonnomaga bilan rasmiylashtiriladi.

6.4. Qo‘mita yig‘ilishlariga tayyorgarlik Qo‘mita raisi nazorati ostida Qo‘mita kotibi tomonidan amalga oshiriladi. Qo‘mita kotibi Qo‘mita a’zolari zarur ma’lumotlarni olishlarini ta’minlaydi va Qo‘mitaning barcha a’zolariga yig‘ilish vaqtini va joyini, shuningdek kun tartibidagi har bir masala uchun barcha zarur materiallarni ilova qilgan holda yig‘ilish kunidan 5 (besh) ish kunitdan kechiktirmasdan dastlabki xabarnomani yuboradi. Xabarnoma Qo‘mita a’zolari uchun qulay bo‘lgan har qanday shaklda amalga oshiriladi: telefon, faks, pochta orqali yoki elektron tarzda.

6.5. Qo‘mita yig‘ilishining kvorumi uning miqdoriy tarkibining 2/3 qismini tashkil etadi.

6.6. Masalalarni hal qilishda Qo‘mitaning har bir a’zosi bir ovozga ega. Qo‘mita a’zosi tomonidan boshqa shaxslarga, shu jumladan Qo‘mitaning boshqa a’zolariga ovoz berish huquqini berilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Qo‘mitaning qarorlari yig‘ilishda ishtirok etuvchi a’zolarning oddiy ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi, ushbu Nizomda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

6.7. Qo‘mita a’zolarining ovozlari teng bo‘lgan taqdirda, yig‘ilishda raislik qiluvchi Qo‘mita a’zosining ovozi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

6.8. Qo‘mita a’zosi yig‘ilishda ishtirok eta olmasa, u muhokama qilinayotgan masala yuzasidan o‘z fikrini yozma shaklda yoki bankda umume’tirof etilgan elektron hujjat aylanish tizimi orqali yuborish huquqiga ega. Mazkur fikr Qo‘mita yig‘ilishida ko‘rib chiqiladi va yig‘ilish bayonnomasiga qo‘sib qo‘yiladi.

6.9. Qo‘mita tomonidan ko‘rib chiqilayotgan masalalarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, Qo‘mita a’zosi bo‘lmagan shaxslar Qo‘mita majlislarida faqat Qo‘mita qarori bilan yoki uning raisi taklifiga binoan ishtirok etadi.

Qo‘mita yig‘ilishlarida Kuzatuv kengashi va Bank Boshqaruvi a’zolari va boshqa mansabdar shaxslari (xodimlari) ishtirok etishi mumkin. Zarurat bo‘lsa, Qo‘mitaning ishiga uchinchi tomon mutaxassislari va maslahatchilari vaqtinchalik yoki doimiy ravishda jalb qilinishi mumkin.

Taklif etilgan shaxslar Qo‘mita vakolati masalalari bo‘yicha qarorlar qabul qilishda Qo‘mita yig‘ilishining kun tartibi masalalari bo‘yicha ovoz berish huquqiga ega emas.

VII. Bank organlari va boshqa shaxslar bilan o‘zaro hamkorlik

7.1. Qo‘mita a’zolari ishini samarali tashkil qilish uchun zarur ma’lumotlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak, buning uchun, Bank ijroiya organlari a’zolari, Bank Kuzatuv kengashi kotibi, Bank tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari,

shuningdek Bankning boshqa xodimlari, Qo‘mita iltimosiga ko‘ra, tegishli vaqt ichida va tartibda Qo‘mita faoliyati bo‘yicha to‘liq va ishonchli ma’lumot va hujjatlarni taqdim etishi shart.

Axborot va hujjatlarni taqdim etish to‘g‘risidagi so‘rov Qo‘mita raisi tomonidan imzolangan yozma shaklda amalga oshiriladi.

So‘ralgan ma’lumotlar va hujjatlar Qo‘mita kotibi orqali Qo‘mitaga taqdim etiladi.

7.2. Zarur hollarda Qo‘mita faoliyati subyektining ayrim masalalarini ko‘rib chiqish uchun Qo‘mita ishiga zarur kasbiy bilimga ega bo‘lgan mutaxassislar va ekspertlar jalb etilishi mumkin. Qo‘mita ishiga ekspert va mutaxassislarni jalb etish tartibi va shartlari Bankning bunday shaxslar bilan tuzgan shartnomasida belgilab qo‘yiladi.

VIII. Qo‘mita byudjeti.

8.1. Qo‘mita faoliyatini ta’minalash maqsadida tegishli davr uchun Bank umumiyligi byudjetining harajatlar qismini shakllantirishda maslahatchilarni jalb etish va ularning xizmatlariga haq to‘lash bo‘yicha potensial zaruratni hisobga olgan holda Qo‘mita harajatlarining alohida moddasi taqdim etilishi mumkin, uning miqdori Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

8.2. Bunday zarurat tug‘ilgan taqdirda, Qo‘mitaning keyingi yil uchun byudjeti miqdori bo‘yicha takliflar Bankning umumiyligi byudjetini shakllantirish chora-tadbirlari doirasida o‘tgan yilning 4-choragida Kuzatuv kengashiga ko‘rib chiqishi uchun kiritiladi.

8.3. Maslahatchilarni ishga jalb etish va ularning xizmatlariga haq to‘lash Qo‘mita byudjetida nazarda tutilmagan qo‘sishimcha mablag‘lar hisobidan Bank boshqaruvi raisi tomonidan Kuzatuv kengashining alohida qarori bilan tashkil etiladi. Mazkur masalani Kuzatuv kengashi ko‘rib chiqishiga kiritish Qo‘mita raisi tashabbusi bilan amalga oshiriladi.

8.4. Kuzatuv kengashining qarori bilan tegishli yil oxirida Qo‘mita raisi Kuzatuv kengashiga ko‘rsatilayotgan xizmatlarning batafsil tavsifi hamda xulosalar va tavsiyalar ilovasi bilan maslahatchilarni jalb qilish uchun mablag‘larning sarflanishi to‘g‘risidagi maslahatchilar tomonidan tayorlangan hisobotni taqdim etadi.

8.5. Aksiyadorlarning umumiyligi yig‘ilishining qarori bilan hamda amaldagi me’yoriy hujjatlarga muvofiq Bank Kuzatuv kengashi a’zolariga, Qo‘mita a’zolariga va Qo‘mita kotibiga haq va kompensatsiya to‘lash tartibiga soluvchi amaldagi me’yoriy hujjatga muvofiq ular o‘z vazifalarini bajargan davrda, Qo‘mita a’zolarining funksiyalarini bajarganliklari uchun haq to‘lanadi.

IX. Bank boshqaruvi organlari va boshqa tarkibiy bo‘linmalar bilan aloqadorligi

9.1. Qo‘mita a’zolarining samarali faoliyatini ta’minalash uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar va hujjatlar Qo‘mita kotibi orqali taqdim etiladi. Axborot va hujjatlarni taqdim etish talabi yozma shaklda Qo‘mita raisi tomonidan imzolanaadi.

9.2. Zarur hollarda Qo‘mita ishiga Qo‘mita vakolatiga kiruvchi ayrim masalalarni ko‘rib chiqish uchun zarur kasbiy bilimga ega bo‘lgan ekspertlar va

mutaxassislar jalg etilishi mumkin. Qo‘mita ishga ekspertlar va mutaxassislarni jalg qilish tartibi va shartlari Bank tomonidan bunday shaxslar bilan tuzilgan shartnomada belgilanadi.

X. Ma’lumotlarning maxfiyligi

10.1.Qo‘mita a’zolari va kotibi Qo‘mita faoliyati davomida ularga ma’lum bo‘lgan insayder va boshqa maxfiy ma’lumotlarni oshkor qilishga haqli emas va ularni oshkor etilishi bo‘yicha shaxsan javobgar bo‘ladi. Bank insayderi yoki bank oldida maxfiylik majburiyatlari bilan bog‘liq bo‘lmagan Qo‘mita yig‘ilishlarida ishtirok etadigan uchinchi shaxslar oldindan Bank bilan insayderlik va boshqa maxfiy ma’lumotlarni oshkor qilmaslik to‘g‘risidagi bitimni imzolashlari shart.

XI. Yakuniy qoidalar

11.1.Ushbu Nizom bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi.

11.2.Ushbu Nizom, shuningdek unga kiritilgan barcha qo‘srimcha va o‘zgartishlar Bank Kuzatuv kengashi a’zolari umumiylar sonining ko‘pchilik ovozi bilan Bank Kuzatuv Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

11.3.Agar ushbu Nizomdagi qoidalaridan biri o‘z kuchini yo‘qotgan bo‘lsa, bu Nizomdagi boshqa qoidalarni to‘xtatishga sabab bo‘lmaydi.

11.4.Ushbu Nizomda tartibga solinmagan barcha masalalar Bank Ustavi, Bank Kuzatuv Kengashi to‘g‘risida”gi Nizom va Bankning boshqa ichki qoidalari va amaldagi qonunchilik bilan tartibga solinadi.

11.5.Agar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari yoki Bank ustavi bilan ushbu Nizomda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalari belgilangan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari va Bank ustavi qoidalari qo‘llaniladi

Kiritildi:

Loyihalarni boshqarish ofisi rahbar
Moliya departamenti direktori
Korporativ maslahatchi

F.A.Ismailov

J.B.Azimov

J.B.Botirov

Kelishildi:

Ekspert guruhi rahbari:
Boshqaruv Raisining birinchi o‘rinbosari


A.T.Tashev

Ekspert guruhi a’zolari:

Boshqaruv Raisi o‘rinbosari

S.T.Kaldibayev

Boshqaruv Raisi o'rinnbosari



D.A.Rustamov

Boshqaruv Raisi o'rinnbosari


Dj.A.Tashkulov

Boshqaruv Raisi o'rinnbosari


Sh.A.Ibragimova

Moliya masalalari direktori


T.X.Axmedov

Risk masalalari direktori


Sh.E.Bozorov

Axborot texnologiyalari
masalalari direktori


Z.Y.Ibragimov

Ichki audit departamenti direktori


O'.I.Tangirov

Bank yuridik xizmat boshlig'i


F.F.Maxmudov

Bank apparati rahbari


Sh.M.Xamrayev

Xodimlar bilan ishlash
departamenti direktori v.b.


M.Y.Kambarova

Muommoli aktivlar bilan ishlash
departamenti direktori


B.N.Aripov

Monitoring va nazorat departamenti
(mildde ofice) direktori


D.G'.G'ayratov

Moliya bozoridagi operatsiyalar
departamenti direktori


I.Z.Qutbiddinov

Korporativ biznes departamenti
direktori v.v.b


A.A.Muazzamov

Mijozlar servizi va marketing
departamenti direktori


F.A.Ruzikulova

Chakana biznes departamenti
direktori


S.O.Safarov

Komplaens nazorat
departamenti direktori


T.M.Jabbarov

Xavfsizlik departamenti direktori


N.I.Tangniberdiyev

Ma'muriy xo'jalik boshqarmasi
boshlig'i


A.A.Shaqqulov

““Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki Kuzatuv Kengashi huzuridagi Strategiyalar va investitsiyalar qo‘mitasi to‘g‘risida” NIZOMning namunaviy loyihasi yuzasidan huquqiy ekspertiza
X U L O S A S I

2023-yil fevral

Toshkent shahri.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-yanvardagi 2733-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmat to‘g‘risida”gi Nizomiga hamda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2000-yil 5-aprelda №916-son bilan ruyxatga olingan “Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki me‘yoriy hujjatlariga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizomning 3.1. bandiga asosan ““Turonbank” aksiyadorlik tijorat bankinging 2023-yil uchun “Hisob siyosati””ning namunaviy loyihasi huquqiy ekspertizadan o‘tkazilganda, quyidagilar

A N I Q L A N D I:

““Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki Kuzatuv Kengashi huzuridagi Strategiyalar va investitsiyalar qo‘mitasi to‘g‘risida” NIZOMning namunaviy loyihasi O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o‘sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to‘g‘risida”gi 2022-yil 8-apreldagi PF-101-sun Farmoni, Vazirlar Mahkamasining “2021-2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2021-yil 29-martdagi 166-son qarori, “Turonbank” ATBning Ustavi, Korporativ boshqaruv kodeksi va amaldagi boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Loyihada umumiy qoidalar, Qo‘mitaning maqsad va vazifalari, Qo‘mita vakolatlari, Qo‘mitaning huquq va majburiyatlari, Qo‘mita tarkibi va uni shakllantirish tartibi, Qo‘mita majlislarini o‘tkazish shartlari va tartibi, Bank organlari va boshqa shaxslar bilan o‘zaro hamkorlik, Qo‘mita byudjeti, Bank boshqaruv organlari va boshqa tarkibiy bo‘linmalar bilan aloqadorligi, Ma’lumotlarning maxfiyligi hamda yakuniy qoidalar belgilab qo‘yilgan.

“Turonbank” ATB Korporativ xizmati tomonidan ishlab chiqilgan ““Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki Kuzatuv Kengashi huzuridagi Strategiyalar va investitsiyalar qo‘mitasi to‘g‘risida” NIZOMning namunaviy loyihasi qonun hujjatlariga zid emas va qonunchilik texnikasi talablariga to‘liq javob beradi.

Yuqoridagilarga binoan, ““Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki Kuzatuv Kengashi huzuridagi Strategiyalar va investitsiyalar qo‘mitasi to‘g‘risida” NIZOMning namunaviy loyihasini huquqiy ekspertizadan o‘tkazish natijalari bo‘yicha

X U L O S A Q I L I N D I:

““Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki Kuzatuv Kengashi huzuridagi Strategiyalar va investitsiyalar qo‘mitasi to‘g‘risida” NIZOMning namunaviy loyihasi qonun hujjatlari asosida ishlab chiqilganligi va qonunchilik texnikasi talablariga muvofiqligi qayd etilsin.

Namunaviy loyiha ko‘rib chiqish uchun Ekspert guruhi muhokamasiga taqdim etilsin.

Bank yuridik xizmati boshlig‘i



F.F.Maxmudov